

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA DARSLARINING MAQSAD VA VAZIFALARI

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.006>

Abdullayeva Bibimaryam Narimon qizi
abdullayevabibishka3377@gmail.com
Urganch davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida musiqa fanining ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rnini aniqlash, uning maqsadi va vazifalarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash hamda amaliyotda qo'llashning samarali yo'llarini ko'rsatib berish, musiqa fanining o'qitilish jarayoni, pedagogik jarayonlar, metodlar va didaktik yondashuvlar, musiqa ta'limi orqali o'quvchilarda estetik tarbiya, musiqiy did va ijodiy salohiyatni shakllantirish yo'llarini aniqlash, musiqa darslarining milliy qadriyatlar, madaniy meros va tarbiyaviy mazmun bilan uyg'unlashgan holatlarini o'rganish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, pedagogik, metod, didaktik, estetik, yondashuv, qadriyat

GOALS AND OBJECTIVES OF MUSIC LESSONS IN GENERAL SECONDARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abdullayeva Bibimaryam Narimanovna
abdullayevabibishka3377@gmail.com
Urganch State Pedagogical Institute

Abstract: This article discusses the role of music in the educational process in secondary general education institutions, the scientific and theoretical substantiation of its goals and objectives, and effective ways of applying them in practice. It discusses the teaching process of music, pedagogical processes, methods and didactic approaches, the ways of forming aesthetic education, musical taste and creative potential in students through music education, and the study of the integration of music lessons with national values, cultural heritage and educational content.

Keywords: education, upbringing, pedagogy, method, didactic, aesthetic, approach, value

Kirish. O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim tizimi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u nafaqat o'quvchilarga bilim berish, balki

ularni har tomonlama barkamol, ma'naviy yetuk shaxslar etib tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu jarayonda san'at ta'limi, xususan, musiqa fani alohida o'rin egallaydi. Musiqa darslari bolalarning ichki dunyosini boyitish, ularda estetik did va ma'naviy fazilatlarni shakllantirish, milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otish orqali ta'lim-tarbiyaning samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da har bir o'quvchining intellektual, axloqiy, estetik, madaniy va jismoniy jihatdan rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishi ta'minlanishi zarurligi ta'kidlangan.¹ Bu esa, ta'lim tizimida musiqa fanining ahamiyatini oshirishni, uni faqat yordamchi emas, balki tarbiyaviy va ma'naviy o'sishga xizmat qiluvchi asosiy fanlardan biri sifatida qarashni talab qiladi.

Musiqa fani o'quvchilarga kuy va ohanglar orqali milliy merosimiz, xalq og'zaki ijodi, bastakorlik maktablari va xalq qo'shiqlari bilan tanishish, ularni his qilish va ijro etish orqali ma'naviy jihatdan o'sish imkonini beradi. Dars jarayonida nafaqat nazariy bilimlar beriladi, balki o'quvchilar cholg'u asboblari chalayotgan musiqalarni tinglash, kuylash, sahnalashtirish orqali o'zlarining ijodiy salohiyatlarini namoyon etadilar.

Mazmuni. O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida musiqa darslari o'quvchilarning ijodiy, estetik va ma'naviy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi kuchli vosita bo'lib, bugungi globallashuv davrida yosh avlodni o'z milliy ildizlariga, madaniy merosiga sodiq, zamonaviy bilim va didga ega insonlar etib voyaga yetkazishda muhim pedagogik vositalardan biridir. Bugungi kunda, musiqa ta'limi nafaqat musiqaning o'rganilishi, balki o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga xizmat qiladigan muhim pedagogik vosita sifatida qaraladi. Musiqa ta'limi jamiyatda o'zgaruvchan ijtimoiy, madaniy va texnologik sharoitlarga mos ravishda rivojlanmoqda. Musiqa darslari nafaqat ijro etish, balki musiqaning tarixiy, madaniy, va texnik tomonlarini o'rgatishga qaratilgan. Zamonaviy pedagogik usullar, texnologiyalar va interaktiv metodlar yordamida o'quvchilar musiqiy ijod va texnikalarni o'rganishda yanada samarali bo'lmoqdalar. Musiqa ta'limi nafaqat ijodiy yondashuvni rivojlantirish, balki o'quvchilarning estetik, madaniy va emotsional rivojlanishini ham ta'minlaydi. Musiqa darslari orqali o'quvchilar ijodiy fikrlashga o'rganadi, sahna madaniyatini egallaydi, nutq va eshitish qobiliyatini rivojlantiradi, o'z fikrini erkin ifodalashga, mustaqil qaror qabul qilishga intiladi. Shuningdek, musiqa bolalarda jamoaviy ishga moyillik, bir-biriga hurmat, mas'uliyat, intizom va qat'iyatlilik kabi ijobiy fazilatlarni shakllantiradi. Bu jihatlar shaxs taraqqiyotida pedagogik jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagogik nuqtayi nazardan musiqa fanining asosiy vazifalaridan biri - bu o'quvchilarda musiqiy savodxonlikni

¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/kadrlar-tayyorlash-milliy-dasturi-amalda>

shakllantirish bilan birga, ularni ijtimoiy faol, madaniyatli va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashdir.

Musiqqa darslarining tarixiy rivojlanishi insoniyatning madaniy va ilmiy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lib, vaqt o'tishi bilan yangi pedagogik yondashuvlar va metodikalar shakllandi. Musiqqa ta'limi qadim zamonlardan boshlab, bugungi kunga qadar o'zgacha bosqichlarni o'tdi va har bir davrda jamiyatning ehtiyojlariga mos ravishda o'zgarib bordi. Antik davrda musiqqa ta'limi asosan diniy va falsafiy asosda rivojlangan. Yunoniston va Rimda musiqqa nafaqat estetik, balki ilmiy jihatdan ham muhim deb hisoblangan. Bu davrda musiqqa o'qituvchilari matematikani, geometriyani va musiqaning ilmiy asoslarini o'rgatgan. Hozirgi zamon musiqasi ko'plab janrlarni o'z ichiga oladi va o'quvchilarni ijodiy yondashuv, musiqiy yaratish, tahlil qilish va texnologiyalardan foydalangan holda o'rgatishning yangi imkoniyatlarini taqdim etadi. Har bir davrda musiqqa ta'limining yangi usullari va pedagogik yondashuvlari ishlab chiqildi, shu bilan birga musiqqa ta'limining maqsadi va mazmuni ham rivojlandi. Hozirgi kunda musiqqa ta'limi nafaqat musiqiy ko'nikmalarni rivojlantirish, balki umumiy estetik va ijodiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan.

Natija. Musiqqa darslari faqat amaliy faoliyat emas, balki keng tarbiyaviy, axloqiy va madaniy maqsadlarga ham ega bo'lgan ta'limiy jarayon hisoblanadi. Musiqqa darslarining pedagogik vazifalari o'quvchilarning yosh xususiyatlari, psixologik rivojlanish darajasi va umumiy ta'lim tamoyillari asosida belgilanadi. Asosiy pedagogik vazifalar quyidagilardan iborat:

1. Estetik tarbiyani shakllantirish. Musiqqa san'ati orqali estetik tarbiya o'quvchilarga atrofdagi go'zallikni ko'ra bilish, uni his etish va baholash ko'nikmasini shakllantiradi. Musiqqa inson qalbini tarbiyalaydi, uning ruhiy olamini boyitadi, go'zallikka intilish, sezgirlik, ohangdorlikni anglash kabi sifatlarni rivojlantiradi. O'quvchilarni klassik va xalq musiqasi asarlari bilan tanishtirish orqali ularning didi va musiqiy dunyoqarashi kengayadi.

2. Musiqiy eshitish madaniyatini rivojlantirish. Eshitish madaniyati - musiqiy bilimlarning asosidir. O'quvchilar musiqqa asarlarini tinglash, tahlil qilish, ularning obrazli, emotsional va mazmuniy jihatlarini anglab yetish ko'nikmalarini egallashlari kerak. Bu orqali ularning musiqiy eshituv sezgirligi, musiqiy tilda fikr yuritish qobiliyati rivojlanadi. Bu vazifa asosan musiqqa tinglash, asarlarni sharhlash va muhokama qilish shaklida amalga oshiriladi.

3. Ijrochilik faoliyatini rivojlantirish. Musiqqa darsining muhim vazifalaridan yana biri - o'quvchilarda amaliy ijrochilik ko'nikmalarini shakllantirishdir. Bu, eng avvalo, qo'shiq aytish, musiqiy asboblarda chalish, ritmik harakatlar qilish kabi faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Ijrochilik nafaqat texnik mahoratni, balki hissiy ifodani, ijodkorlikni ham talab qiladi. O'quvchilar o'z hissiyotlarini ifoda etishga o'rganadilar, sahna madaniyati asoslarini egallaydilar.

4. Musiqa savodxonligini oshirish. O'quvchilar musiqa darslarida notani o'qish, ritmni aniqlash, tonallik, temp, dinamik kabi asosiy tushunchalarni o'zlashtiradilar. Bu ular uchun musiqa olamiga ilmiy yondashish imkonini beradi. Musiqa nazariyasi bilan tanishish o'quvchilarga ijodiy faoliyatda yordam beradi, ularni ongli ijro etishga yo'naltiradi.

5. Milliy va jahon musiqasini o'rganishga qiziqishni oshirish. Musiqa darslarining yana bir vazifasi - o'quvchilarda milliy qadriyatlarga sadoqat, xalq kuy-qo'shiqlariga muhabbatni shakllantirish bilan birga, jahon musiqiy madaniyati namunalari bilan ham tanishtirishdir. Bu esa ularni boshqa xalqlarning san'atiga hurmat ruhida tarbiyalaydi, madaniyatlararo muloqotni rivojlantiradi. Har bir xalqning musiqasi uning ruhiy qiyofasi, tarixiy xotirasi sifatida namoyon bo'ladi.

6. Ijodiy fikrlash va emotsional rivojlanishni ta'minlash. Musiqa o'quvchilarning ichki dunyosini boyitish, tasavvuri va emotsional holatini kengaytirishda muhim vositadir. Musiqa darslarida improvizatsiya, kompozitsion mashqlar, o'ziga xos musiqiy obrazlar yaratish orqali bolalarda ijodiy yondashuv shakllanadi. Bu ularni mustaqil fikrlash, o'z fikrini musiqiy shaklda ifoda etishga o'rgatadi. Bundan tashqari musiqa to'garaklari, ijod maktablari va maktabdan tashqari ta'lim orqali ham o'quvchilar musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin. Maktabdan tashqari ta'lim bolalarga uzluksiz ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan. Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, "Barkamol avlod" bolalar maktablari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalari kiradi.²

Musiqa ta'limida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilarning musiqiy bilimlarini kengaytirish, ijodiy salohiyatlarini rivojlantirish va dars maqsadlariga erishishning samarali vositalaridan biri bo'lib, bu sohada yangiliklar va innovatsion yondashuvlar doimiy ravishda yuzaga kelmoqda. Bugungi kunda texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish, musiqa darslarini yanada qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. O'quvchilarning diqqatini jalb qilish, ularning musiqiy bilimlarini mustahkamlash va estetik didlarini shakllantirishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Zamonaviy texnologiyalar yordamida musiqa darslarini interaktiv, didaktik va innovatsion tarzda tashkil etish mumkin. Bunda turli platformalar, dasturlar va onlayn resurslar o'quvchilarga yanada kengroq imkoniyatlar yaratadi. Texnologiyalar nafaqat musiqiy bilimlarni o'rganishga yordam beradi, balki o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantiradi, ularni musiqiy asarlarni tahlil qilishda, yaratishda va ijro etishda faol ishtirok etishga undaydi. Darslarni tashkil qilishda zamonaviy texnologiyalarning roli nafaqat o'qituvchi va o'quvchilar

² <https://lex.uz/docs/-5013007> O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son

o'rtasidagi o'zaro aloqalarni samarali tashkil etishga, balki o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada jonli, interaktiv va faol qilishga xizmat qiladi. Texnologiyalar yordamida darslar yanada kreativ, innovatsion va talabga mos tarzda tashkil etilishi mumkin. Bu esa o'quvchilarning o'rganish jarayonidagi motivatsiyasini oshiradi va ularning bilimlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar darslarni tashkil qilishda ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning qiziqishini uyg'otish va o'rganish jarayonini samarali qilishda katta yordam beradi.

Xulosa. Musiqa ta'limi umumiy o'rta ta'lim tizimida nafaqat o'quvchilarning musiqiy bilimlarini rivojlantirish, balki ularning estetik, ijodiy, va ma'naviy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Musiqa darslari orqali o'quvchilar musiqaning badiiy va estetik jihatlarini o'rganish, musiqiy tafakkurini shakllantirish va shaxsiy salohiyatini yuksaltirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ushbu darslar nafaqat musiqa asarlarini tinglash va ijro etish, balki musiqani yaratish, tahlil qilish va estetik jihatdan anglashni ham o'rgatadi. Demak, musiqa ta'limining asosiy maqsadi - o'quvchilarda musiqiy ko'nikmalarni shakllantirish, estetik didni rivojlantirish va ularni ijtimoiy ongli, madaniyatli shaxslar sifatida tarbiyalashdir. Bu maqsadlarga erishish uchun musiqa darslarida turli pedagogik metodlar, texnologiyalar va vositalar qo'llaniladi. Darslarda tinglash, ijro etish, ko'rgazmali metodlar va amaliy yondashuvlar orqali o'quvchilar musiqiy asarlarning tuzilishi, melodiya, ritm va garmoniyasini tushunishadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar - kompyuter dasturlari, multimedia vositalari va mobil ilovalar orqali darslar yanada interaktiv va qiziqarli bo'ladi, o'quvchilarning musiqani o'rganish jarayonini soddalashtiradi.

Musiqa ta'limida metodlar va texnologiyalarni to'g'ri tanlash o'quvchilarning musiqiy savodxonligini rivojlantirishga, ularning estetik va ijodiy tafakkurlarini kengaytirishga yordam beradi. Musiqa asboblari, notalar, qo'llanmalar va ko'rgazmali materiallar yordamida o'quvchilar o'zlarining ijodiy salohiyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchilar nafaqat musiqani o'rganish, balki uni ijro etish va yaratish orqali o'zlarining ichki dunyosini boyitadi. Musiqa ta'limining pedagogik va estetik ahamiyati hamda o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga qo'shgan hissasi juda katta. Musiqa o'rganish orqali o'quvchilar nafaqat musiqiy bilimlarni egallashadi, balki ijtimoiy va ma'naviy fazilatlarni rivojlantiradilar. Musiqa ta'limi yordamida shakllanadigan estetik qarashlar, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va jamiyatda o'z o'rnini topishga tayyorlaydi.

Shu bilan birga, musiqa darslari o'quvchilarni milliy va jahon madaniyatlari bilan tanishtirishda ham muhim rol o'ynaydi. Musiqa orqali o'quvchilar turli xalqlarning an'analari, madaniyati va tarixiy tajribalari bilan tanishadilar. Bu esa o'quvchilarda xalqaroqlik, bag'rikenglik va madaniy merosga hurmat hissini uyg'otadi. Umuman olganda, musiqa - bu tovushlar, ritmlar, melodiyalar, garmoniyalar va dinamikalardan tashkil topgan badiiy ifodadir. Musiqa, insonlarning hissiyotlarini, fikrlarini, fikr va

tasavvurlarini ifodalashda eng samarali vosita bo'lib, u turli madaniyatlarda, xalqlarda, tarixiy davrlarda o'ziga xos shakl va mazmunni qamrab olgan. Musiqa san'ati, asrlar davomida insoniyatni birlashtiruvchi kuch sifatida xizmat qilib kelgan va hozirgi kunda ham bunday vazifani bajarishda davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Musiqa o'qitish metodikasi: Yangi yondashuvlar" - Z.A. Toshpulatova
- 2 . "Musiqa ta'limi metodlari" - T.R. Shodmonov
3. Umumiy o'rta ta'limda musiqa ta'limining metodikasi. Mirzaeva, N. Toshkent: Fan va texnologiya (2015).
- 4 . Musiqa pedagogikasi va metodikasi. Usmonov, R. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti (2016).
5. Musiqiy san'at va ta'limdagi o'rni. Amonov, Sh. Toshkent: Sharq nashriyoti (2018).
- 6 . Musiqa darslarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash. Karimov, Z. Toshkent: Fan va ta'lim (2017).
7. Musiqa san'ati va pedagogik yondashuvlar. Akhmedov, I. Toshkent: Akademiya nashriyoti (2014).
8. Musiqa va estetik tarbiya. Yusupova M. - Samarqand, 2017.
9. Musiqa ta'limi va uning metodikasi. Tursunov L. - Toshkent: Ma'naviyat, 2016.
10. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. - 2020-yil.
11. <https://inacademy.uz/index.php/yopa/article/download/27136/17525/26331>